

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:
№ 274
2021 yil " 30 " 08



**UMUMIY VA TARIXIY GEOLOGIYA
FANI SILLABUSI**

Bilim sohasi:

300 000-Ishlab chiqarish-texnik soha

Ta'lim sohasi:

310 000-Muhandislik ishi

Ta'lim yo'nalishi:

60721600 – Foydali qazilma konlari geologiyasi,
qidiruv va razvedkasi (kon turlari
bo'yicha: neft va gaz konlari)



Qarshi – 2021

Ushbu fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti rektorining 2021 yil "28" avgustda ro'yxatga olingan №BD-665-1.05 fan dasturi asosida tuzildi.

Tuzuvchi:
Xolbayev B.M., -"Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi" kafedrasini professori v.b.

Taqrizchilar:
Yuldashev T.R., -"Texnologik mashinalar va jihozlar" kafedrasini professori.
Axmedov X.R., -"Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi" kafedrasini katta o'qituvchisi.

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining "Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi" kafedrasining 2021 yil "16" 08 dagi 1- son yig'ilishida hamda "Geologiya va konchilik ishi" fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2021 yil "17" 08 dagi 1- son yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.
Institut Uslubiy Kengashining 2021 yil "28" 08 dagi 1- son yig'ilishi qarori bilan o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O'quv - uslubiy boshqarma boshlig'i
Fakultet uslubiy komissiyasi raisi
Kafedra mudiri:



Sh.R. Turdiyev
M.J. Gofurov
B.M. Xolbayev

"Umumiy va tarixiy geologiya" fani sillabusi

Fan (modul) kodi UTGE1207	O'quv yili 2021-2022	Semestr 1/2	ECTS krediti 4/3
1.	Fan (modul) turi Majburiy fan	Ta'lim tili o'zbek	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Haftalik dars soati 4
		Mustaqil ta'lim	Jami yuklama
	"Umumiy va tarixiy geologiya"	90	120
			210

O'qituvchi haqida ma'lumot

Kafedra nomi	"Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi"		
	F.I.SH.	Telefon: mobil:	e-mail
O'qituvchilar			
Ma'ruzachi	Xolbayev Baxrom Maxmudovhch	+998934220073	xolbayev_b@mail.ru
	Turdiyev Shahboz Shermamat o'g'li	+998912155151	shahboz01011991@
Amaliy mashg'ulot	Xolbayev Baxrom Maxmudovhch	+998934220073	xolbayev_b@mail.ru
	Turdiyev Shaxboz Shermamat o'g'li	+998912155151	shahboz01011991@

2. Fanning mazmuni

2.1. Fanni o'qitish maqsadi va vazifalari

Fanning o'qitishdan maqsad - fanni o'rganuvchi talabalar yerning ichki va tashqi tuzilishini, yer po'stining tarkibi va taraqqiyoti, quyosh turkumi va uning sayyoralarini to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishlari, undan tashqari yer po'stini tashkil etuvchi minerallar va tog' jinslari, geoxronologiya, zilzila, tektonik xarakterlar va tektonik strukturalar, magmatizm va metamorfizm jarayonlari va ularning sabablarini bilish yer yuzasida kechayotgan ekzogen jarayonlar va yer osti va ustki suvlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishdir.

Fanning asosiy vazifalari - biz yashayotgan Yer va uning paydo bo'lishini, u nima va qanday tuzilgani, o'zining millionlab yillik uzoq tarixida qanday o'zgarishlarga uchraganini, Yerning ostki va ustki qismida kechadigan geologik jarayon ta'sirida o'zgaradigan Yer yuzining shakllarini, ularning o'zgarishini, Yerning fizik va kimyoviy xossalari, qatlamlarni, uni tashkil etgan mineral va tog' jinslarini talabalar o'zlashtirishidir.

Nazariy qismdan so'ng amaliy mashg'ulotlar davrida talabalar auditoriya sharoitida olgan bilimlarini mustahkamlabgina qolmay, tabiiy sharoitda hodisalarni tushunishga va hududning tuzilishini o'qishga erishadilar.

2.2. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- quyosh tizimining tuzilishi va paydo bo'lishi, erning shakli va o'lchamlari, yer po'stining tuzilishi;

- endogen va ekzogen jarayon va hodisalar;

- yer rivojlanish tarixi va geoyilnoma shkalasi;

- tektonik harakatlar, yoriqlar, uzilmalar;

- o'tmishdagi fizik-geografik vaziyatni tiklash usullari *haqida tasavvurga ega bo'lishi*;

- yer yuzasida va qa'rida bo'ladigan asosiy geologik jarayonlarni va ularning natijalarini;

- umumiy geoyilnoma va stratigrafik shkalalarni;

- asosiy geotektonik farazlarni;

- yer po'tlog'ining rivojlanish tarixidagi asosiy qonuniyatlarni *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

- geologik karta va qirqimlarda tog' jinslarining yoshi, genezisi, litologiyasi va geologik nomutanosibliklarini tasvirlash *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;

- geologik jarayonlarning yo'nalganligi va davriyligini aniqlash *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

2.3. Ta'lim texnologiyalari va uslublari:

Talabalarga fanni chuqurroq o'rgatish maqsadida quyidagi ta'lim texnologiyalari tavsiya etiladi:

- interfaol keys stadiyalar;

- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);

- guruhlarda ishlash;

- taqdimotlarni qilish;

- individual loyihalar;

- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va me'yoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini ko'rsatishi zarur.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish (modul platformasi), darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma'ruzalar o'qish, videoaudio mashg'ulotlar va elektron resurslar (Internet tarmog'i orqali) dan foydalaniladi.

Dastur talabalar bilimni reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.

2.4. Fan bo'yicha umumiy yuklama xajmining o'quv jarayoni turlari bo'yicha taqsimlanishi

T/r	Mavzu nomi	Talabanning o'quv yuklamasi, soat					
		Umumiy yuklama hajmi	Auditoriya mashg'ulotlari				Mustaqil ta'lim
			Jami	Jumladan			
		ma'ruza		amaliy	kurs ishi (loyhasi)		
1	2	3	4	5	6	7	8
<i>1-semestr</i>							
1.	Fanning mazmuni, vazifalari va boshqa fanlar bilan aloqasi	8	4	2	2		4
2.	Quyosh turkumining tuzilishi va tarkibi	10	4	2	2		6
3.	Yerning ichki tuzilishi, zichligi, harorati va radioaktivligi	10	4	2	2		6
4.	Yer po'stining kimyoviy va mineral tarkibi	10	4	2	2		6
5.	Geologiyada vaqt. Geoxronologik jadval	10	4	2	2		6
6.	Endogen geologik jarayonlar. Magmatizm va vulkanizm. Magmatik tog' jinslari	10	4	2	2		6
7.	Zilzilalar	8	4	2	2		4
8.	Tektonik harakatlar	10	4	2	2		6
9.	Metomorfizm. Metomorfik tog' jinslari.	10	4	2	2		6
10.	Ekzogen jarayonlar. Nurash. Shamolning geologik ishi	10	4	2	2		6
11.	Daryoning va muzlikning geologik ishi	8	4	2	2		4
12.	Ko'l va botqoqliklarning geologik ishi	8	4	2	2		4
13.	Yer osti suvlarning turlari, hosil bo'lishi va tarkibi	10	4	2	2		6
14.	Okean va dengizning geologik ishi	10	4	2	2		6
15.	Cho'kindi tog' jinslari	8	4	2	2		4
<i>Xulosa</i>							
<i>Jami 1- semestr bo'yicha</i>		<i>140</i>	<i>60</i>	<i>30</i>	<i>30</i>		<i>80</i>

1	2	3	4	5	6	7	8
2-semestr							
1.	Tarixiy geologiya fani va uning vazifalari, bo'limlari va izlanish usullari	10	4	2	2		4
2.	Mutloq va nisbiy geoxronologiya	10	4	2	2		4
3.	Xalqaro stratigrafik jadval, stratigrafik tabakalash va takkoshlash usullari	10	4	2	2		4
4.	Geotektonika va geodinamika asoslari, litosfera plitalari	10	4	2	2		4
5.	Geodinamik sharoitlar va jarayonlar	10	4	2	2		6
6.	Tarixiy geodinamika. Yer rivojlanishini davriylash	10	4	2	2		6
7.	Yer sharining asosiy tektonik tuzilmalari	10	4	2	2		6
8.	Kadimgi Yer kobigining shakllanishi	10	4	2	2		6
Jami 1- semestr bo'yicha		70	30	16	14	κ/μ	40
Fan bo'yicha hammasi:		210	90	46	44		120

2.5. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibi mavzulari:

1-semestr

1-mavzu. Fanning mazmuni, vazifalari va boshqa fanlar bilan aloqasi.

"Umumiy va tarixiy geologiya" fani, quyosh tizimining tuzilishi va paydo bo'lishi; quyosh turkumidagi sayyoralar; quyosh turkumining paydo bo'lishi to'g'risidagi gipotezalar; quyoshning tuzilishi; biz yashayotgan yer va uning paydo bo'lishi va u nimadan tuzilganligi, uning millionlab yillik uzoq tarixida qanday o'zgarishlarga uchrashini; yerning shakli va o'lchamlari, erning og'irligi, zichligi, radioaktivligi, mineral va tog' jinslari to'g'risida tushuncha. Minerallarning kimyoviy va fizik xususiyatlari. Minerallarning tabiatda hosil bo'lishi, nomenklaturasi va tasnifi. Minerallarni sanoatdagi va iqtisodiyot tarmoqlaridagi ahamiyati. Mineral hosil qiluvchi jarayonlar (genezisi) tarixini o'rganadi.

2-mavzu. Quyosh turkumining tuzilishi va tarkibi.

Quyosh turkumining tuzilishi haqidagi masala insoniyatni hamma vaqt qiziq-tirib kelgan. Bu mavzu orqali quyosh turkumining tuzilishi, quyosh turkumining tarkibi, ya'ni sayyoralar, asteroidlar, meteorit va kometalar haqida so'z yuritiladi.

3-mavzu. Quyosh turkumining paydo bo'lishi haqidagi kosmogonik va katastrofik gipotezalar.

Quyosh turkumining paydo bo'lishi haqidagi gipotezalar (Kant - Laplas gipotezasi, Fesunkov nazariyasi, Shmidt kosmogonik gipotezasi) bilan tanishish.

4-mavzu. Yerning ichki tuzilishi, zichligi, xarorati va radioaktivligi.

Yerning ichki tuzilishi to'g'risida bilimlarni kengaytirish, mustahkamlash va ko'nikmalarni chuqurlashtirish.

5-mavzu. Yer po'stining kimyoviy va mineral tarkibi.

Yer va Yer po'stining fizik xususiyatlari bilan bir qatorda uning kimyoviy tarkibi ham katta ahamiyatga egadir. Yerning kimyoviy tarkibini bilish uchun uni kimyoviy jihatdan tahlil qilinadi.

6-mavzu. Geologiyada vaqt. Geoxronologik jadval.

Sayyoralar yoshini bilish insonlarni uzoq vaqtlardan beri qiziqtirib kelmoqda. Yerimizning yoshini yillar bilan ifodalab berishga asoslangan absolyut va nisbiy yosh usullari haqida va geoxronologik jadval (era, davr, bo'lim, yarus) to'g'risida to'liq ma'lumotlar beriladi.

7-mavzu. Endogen geologik jarayonlar. Magmatizm va vulkanizm. Magmatik tog' jinslari.

Yerning ichki qismida bo'ladigan geologik jarayonlar endogen jarayonlar va ularning natijasida sodir bo'ladigan vulqonlar, ularning turlari va magmatik tog' jinslari haqida ma'lumotlar beriladi.

Magmatizm natijasida hosil bo'ladigan magmatik tog' jinslari va ularning turlari haqida ma'lumotlar beriladi.

8-mavzu. Zilzilalar.

Zilzilalarni o'rganuvchi fan seysmologiya deyiladi. Seysmologiya fani uchga bo'linadi. Ularni har biri har xil turdagi Yer tebranishlarini o'rganadi. Bu tebranishlar kuchiga qarab ular mikroseysmologiya, makroseysmologiya (makroseysmik) va megoseysmologiyaga bo'linishi va ularning oqibatlari haqida va h.k.

9-mavzu. Tektonik harakatlar.

Yer qobig'ida tog' jinslari gorizontol va qiya (monoklinal) holatda hosil bo'ladi. Tashqi va ichki kuchlar ta'sirida ular deformasiyaga uchrashi, qatlarning burmchang shakllarining xosil bo'lishi, burmalarning morfologik tasnifi, tog' jinslaridagi darzliklar haqida ma'lumotlar beriladi.

10-mavzu. Metomorfizm. Metomorfik tog' jinslari.

"Metomorfizm" so'zi avval mavjud bo'lgan tog' jinslarining keyinchalik fizik-kimyoviy muhitning o'zgarishi ta'siri ostida struktura va mineral tarkibining o'zgarishi uchun sabab bo'ladigan hamma jarayonlarni anglatishi va metomorfizm turlari.

11-mavzu. Ekzogen jarayonlar. Nurash. Shamolning geologik ishi.

Yerning ustki qismida bo'ladigan geologik jarayonlar ekzogen jarayonlar deb nomlanib, uning natijasida relef nevilirlanadi yoki silliqilanadi. Bu jarayonlar atmosfera, gidrosfera va biosferalarning er po'sti bilan o'zaro ta'siri natijasida sodir bo'ladi. Tepaliklar emiriladi, emirilgan jinslar shamol, suv yordamida olib ketiladi va yotqizi-

ladi. Yerning tashqi kuchlari bilan bog'liq bo'lgan geologik jarayonlar natijasida oltin, qo'rg'oshin, platina, olmos, har xil ko'mirlar, slanes, neft, gaz va boshqa foydali qazilma konlari vujudga keladi.

Mineral va tog' jinslarining muhim o'zgarishini vujudga keltiruvchi mexanik, kimyoviy va organik turdagi bir qancha jarayonlarga nurash deyiladi. Nurash natijasida har xil tog' jinslari xosil bo'lishi to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Shamolning tezligi qancha katta bo'lsa, uning kuchi shuncha zur bo'ladi. Kuchli shamol juda katta kuchga ega. Shamolning bajargan geologik ishi va maxsulotlari haqida ma'lumotlar beriladi.

12-mavzu. Daryoning va muzlikning geologik ishi.

Daryolarning geologik ishi boshqa ba'zi bir ekzogen omillar singari, odatda alohida olib ko'riladigan, lekin ko'pincha bir vaqtda mavjud bo'ladigan uch bosqichdan iboratdir. Shular haqida to'liq ma'lumotlar beriladi.

Muzlik Yer yuzasida asosan qorning yig'ilishidan hosil bo'ladi. Muz yig'ilishining asosiy sharti qalin qor qatlami ko'p miqdorda qattiq yog'ining yog'ishi va past haroratdir. Muzliklarning geologik ishi, muzlik turlari ularning mahsulotlari to'g'risida so'z yuritiladi.

13-mavzu. Ko'l va botqoqliklarning geologik ishi.

Oqmaydigan yoki sekin oqib turadigan suvlar to'plangan, bevosita dengizga qo'shilmagan, o'rta qismida o'simlik o'smaydigan havza ko'l deb ataladi. Birmuncha sayoz, o't o'sib suv yuzasigacha chiqqan suv havzalari botqoqlik deyiladi.

14-mavzu. Yer osti suvlarning turlari, hosil bo'lishi va tarkibi.

Tabiatda er osti suvlarning paydo bo'lishi tog' jinslarining turlariga, ularning tarkibiga, xossalarning xususiyatlariga bog'liq holda yuz berishi, ularning turlari va tarkibi to'g'risida so'z yuritiladi.

15-mavzu. Okean va uning tubini tuzilishi va dengizning geologik ishi. Cho'kindi tog' jinslari.

Dengizlarni geologik ishi ham umuman daryo, muz va shamollarning geologik ishlarida bo'ladigan bosqichlarni bosib o'tadi: tog' jinslarini emiradi, bir joydan ikkinchi joyga olib boradi hamda emirilgan materiallari yotqizadi.

Cho'kindi jinslarga avval hosil bo'lgan tog' jinslarining Yer yuzasida quyi harorat va past bosim natijasida emirilishidan hosil bo'lgan jinslar kiradi.

Fizik va kimyoviy tarkibi jihatidan okean bir, butun lekin miqdori jihatidan gidrologik va gidrokimyoviy ko'rsatkichlari xilma-xildir. Gidrologik rejimning tabiiy geografik xususiyatlariga ko'ra, dunyo okeani alohida okeanlar, dengizlar, qo'ltiqlar, buxta va bo'g'ozlarga ajralib turadi.

2 semestr.

1 - mavzu. Tarixiy geologiya fani vazifalari, bo'limlari va izlanish usullari.

Talabalarda fan to'g'risida yaxlit tasavvur hosil qilish hamda ma'lum yo'nalishlarni tanlash ko'nikmasini berish, tarixiy geologiya fanining vazifalari, bo'limlari va izlanish usullari yo'nalishlari bilan tanishtirish xamda, fan 4 asosiy masalani geoxronologiya, stratigrafiya, paleografiya va paleotetonikalarni echishga harakat qiladi.

2 - mavzu. Mutloq va nisbiy geoxronologiya.

Vaqt, vaqt ketma-ketligi va geologik hodisalarni davriylash haqidagi tushunchalar geologiya fanining fundamental asosi hisoblanadi. Nisbiy geoxronologiya geologik voqiyalikning ketma-ketligini o'rganadi, absolyut geoxronologiya esa jinslarning yoshini yillar bilan ifodalashga qiladi.

3-mavzu. Xalqaro stratigrafik jadval, stratigrafik tabaqalash va taqqoslash usullari.

Xalqaro stratigrafik jadvalni yuqori tabaqalari (eratemala, sistema, bo'lim, yarus, zona) haqidagi tushunchalar va h.k.

Stratigrafik kesmalarni tabaqalash va taqqoslashda ko'p sonli usullardan foydalaniladi. Ularning asosida tuzilgan stratigrafik jadvallar bir-birini to'ldiradi. Bu esa o'rganilayotgan cho'kindi yotqiziqnlarni ishonchli taqqoslash imkoniyatini yaratadi.

4-mavzu. Geotektonika va geodinamika asoslari, litosfera plitalari.

Geodinamika Yer kubiqlarining tuzilishini, tarkibini harakatga keltiruvchi jarayon va kuchlarni o'rganadi. Geodinamika asosan umumiy va hududiy ajratiladi. Umumiy geodinamika Yer qobiklarining tuzilishini va rivojlanishini, hududiy geodinamika esa okeanlar, Yer po'sti, burmalangan mintaqalar va platformalarning hosil bo'lishi, tuzilishi va rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi.

5-mavzu. Geodinamik sharoitlar va jarayonlar.

Geodinamik jarayonlar asosan 4 bosqichda: Riftogenez, Spreyding, Subduksiya va Kolliziya shaklida ifodalanadi.

6-mavzu. Tarixiy geodinamika. Yerning rivojlanishini davriylash.

Yerning geologik tarixini tiklashning yagona tamoyillarini yaratish, uning tarixini davriylash eng muhim, murakkab va og'ir muamodir. Har xil geologik hodisalar turli xil formasiya va komplekslarini yaratadi, ular bir - biriga o'xshamaydi, hech qachon va hech qacra takrorlanmaydi.

7-mavzu. Yer sharining asosiy tektonik tuzilmalari.

Litosfera plitalari tektonikasi qarashlarining paydo bo'lishi, okean po'sti shakllanishini va uning keyinchalik qit'a turiga aylanishini yangicha mobilistik talqin etish imkoniyatlarini berdi.

8- mavzu. Qadimgi Yer kobig'ining shakllanishi.

Yerdagi qit'alar shajarasi 4,2-3,8 mlrd.yilga borib taqaladi, bu qadimgi davrdagi tuzulish to'liq o'rganilmagan. Yerni 4,6 mlrd.yillik tarixida arxeo boskichi, Pangeya, Monogeya, Rodiniy, Gondvana qit'alarini paydo bo'lgan, rivojlangan va parchalangan.

2.3. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-semestr

1.Jins hosil qiluvchi minerallarning fizik xususiyatlari. Minerallarning qattiqligi, ulanish tekisligi va sinishi.

2.Minerallarning rangi va chizig'ining rangi, yaltiroqligi, tiniqligini o'rganish.

3.Minerallarning solishtirma og'irligi, magnitlik xususiyati, mo'rtligi, pachoqlanishi va qayishqoqligini o'rganish.

4. Minerallarning kimyoviy tarkibi bo'yicha turlari. Sof tug'ma elementlar va sulfidlar.

5. Oksid, gidrooksid, galoid va sulfatlar minerallarni o'rganish.

6. Magmatik tog' jinslari. Ularning strukturasi, teksturasi va yotish shakllari.

7.Nordon, o'rta, asos va o'ta asos magmatik tog' jinslarini o'rganish.

8.Cho'kindi tog' jinslari, ularning strukturasi, teksturasi, g'ovakligi, rangi va solishtirma og'irligi.

9.Bo'lakli, organogen va ximogen cho'kindi tog' jinslar.

10.Metamorfik tog' jinslari. Ularning strukturasi va teksturasi.

11.Metamorfik tog' jinslarining tasnifi.

12.Geologik xaritalar, ularning turlari va masshtabi.

13.Geologik kesma va stratigrafik ustun tuzish usullari. Tog' kompassi.

2 semestr

1.Yer qobig'ini struktura elementlari. Platforma va serharakat mintaqalar.

Ularni yozuvsiz xaritaga tushirish.

2.Yuqori paleozoy davrlarining organik dunyosi bilan tanishish.

3.Kembriy, ordovik va silur davrlarining paleogeografik xaritasi bilan tanishish. Kontur xaritaga tushirish, bo'yash va ta'riflash.

4.Devon, toshko'mir va perm davrlari paleogeografik xaritasi bilan tanishish. Kontur xaritaga tushirish, bo'yash va ta'riflash.

5. Mezazoy erasi davrlarining organik dunyosi bilan tanishish.

6.Trias, yura davrlari paleogeografik xaritasi bilan tanishish. Kontur xaritaga tushirish, bo'yash va ta'riflash.

7.Kaynazoy erasi davrlarining organik dunyosi bilan tanishish. Paleogen va neogen davrlarining organik dunyosi bilan tanishish. Kontur xaritaga tushirish, bo'yash va ta'riflash.

2.6. Laboratoriya ishlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

O'quv rejada laboratoriya ishlari kiritilmagan.

2.7. Kurs ishi (loyihasi) bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli mavzular bo'yicha topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Kurs ishi talabalarni fan bo'yicha olgan barcha bilimlarini jamlagan holda mustaqil ravishda berilgan mavzuni o'zlashtirib mukkamal tahlil etishga bag'ishlangan.

Kurs ishi har bir talaba tomonidan taqdimot shaklida tayyorlanib, o'quv guruhi oldida himoya qilinadi (ma'ruza, savol - javoblar).

Fan bo'yicha kurs ishi o'quv rejasida rejalashtirilgan bo'lib, quyida kurs ishi mavzulari berilgan.

1.Ko'l va botqoqlik yotqizilari

2.Metamorfizm sabablari

3.Yerning tashqi qobiqlari

4.Yer po'stining kimyoviy tarkiblari

5.Zilzilalarning geografik tarqalishi

6.Yerning issiqligi va magnitlik xususiyati

7.Yer po'sti va mantiya

8.Daryolarning geologik ishi

9.Ko'l va botqoqliklarning geologik ishi

10.Jins hosil qiluvchi minerallarning fizik xususiyatlari

11.Dengiz yotqizilari

12.Yer po'stining tebranma harakati

13.Neft va uning hosil bo'lishi

14.Muzliklarning geologik ishi

15.Yer osti suvlarining hosil bo'lishi

16.Yerning atmosfera qobig'i

17.Vulqon va uning mahsulotlari

18.Geotektonik gipotezalar

19.Yerning ichki tuzilishi

21.Yoriq hosil qiluvchi harakatlar

22.Lyos va uning hosil bo'lishi

23.Burma hosil qiluvchi harakatlar

24.Quyosh turkumining tuzilishi

25. Quyosh turkumining paydo bo'lishi gipotezalari (Djins, Kant-Laplas, Fesenkov, Shmit)
26. Yer qobig'ining tuzilishi. Uning turlari (kontinental va okean qobiqlari)
27. Magmatik tog' jinslari va ularning tasnifi (jadval)
28. Metamorfik tog' jinslari va ularning tasnifi (jadval)
29. Cho'kindi tog' jinslari va ularning tasnifi (jadval)
30. Vulkanizm va vulqon turlari
31. Magmatik tog' jinslarining yotish shakllari (fokkolit, bottolit, shtok, lakko-lit va boshq.)
32. Atmosfera va uning tuzilishi
33. Nurash jarayonlari (mexanik va kimyoviy)
34. Shamolning geologik ishi
35. Daryoning geologik ishi (eroziya, transportirovka va akkumulyatsiya)
36. Daryo vodiysining rivojlanish bosqichlari
37. Terrassalar xili (akkumulyativ, erozion, sokol)
38. Ko'l va botqoqliklarning genetik turlari
39. Botqoqliklarning geologik ishi
40. Yerning kimyoviy tarkibi
41. Minerallarni fizik xossalari (rangi, shaffofligi, og'irligi)
42. Minerallarning kimyoviy tasnifi (sof elementlar, sulfidlar, oksidlar va gid-rooksidlar, galogen birikmalar, karbonat, sulfatlar, fosforit, silikatlar)
43. Tog' jinslarining burmalar shaklida yotishi (plikativ dislokasiya)
44. Tog' jinslarining singan holatda yotishi (dizyunktiv dislokasiya)
45. Yer va tog' jinslarining nisbiy yoshini aniqlash usullari
46. Yer va tog' jinslarining mutlaq (absolyut) yoshini aniqlash usullari
47. Yer sharida suvning aylanma harakati va uning energiyasi
48. Vaqtincha oqar suvlarning ishi (prolyuvial tog' jinslar)
49. Atmosferaning issiqlik balansi
50. Dengiz suvining kimyoviy tarkibi va fizik xususiyatlari
51. Dengizdagi emirilish jarayonlari
52. Dengiz cho'kindilari (shelf, batial, abissal cho'kindilari)

2.8. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Yerning ichki tuzilishi.
2. Yer po'sti va mantiya.
3. Yer po'stining mineral tarkibi.
4. Yer po'stining kimyoviy tarkibi.
5. Jins hosil qiluvchi minerallarning fizik xususiyatlari.

6. Minerallarning kimyoviy tasnifi (sulfidlar, oksidlar, gidroksidlar, sulfatlar, karbonatlar va h.z.).
7. Vulqon va uning mahsulotlari.
8. Magmatik tog' jinslari va ularning tasnifi.
9. Cho'kindi tog' jinslari va ularning tasnifi.
10. Metomorfik tog' jinslari va ularning tasnifi.
11. Quyosh turkumidagi sayyoralar.
12. Magmatizm va vulkanizm.
13. Tektonik xarakatlar.
14. Nurash.
15. Shamolning geologik ishi.
16. Daryoning geologik ishi.
17. Muzlikning geologik ishi.
18. Ko'l va botqoqliklarning geologik ishi.
19. Yer osti suvlarning turlari xosil bo'lishi va tarkibi.
20. Vaqtincha oqar suvlarning ishi (prolyuvial tog' jinslari).

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

2.9. Talabalar bilimni baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar.

Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo'yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O'zbekiston Respublikasi OO'MTVning 2018 yil 9 avgustdagi 9-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

Talabalar bilimni quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha ta-savvurga ega deb topilganda - 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushumadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushumadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda - 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talabalarga tegishli ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi.

III. Adabiyotlar

3.1. Asosiy adabiyotlar

1. Долямов Т.Н., Троицкий В.И. Эволюцион геология. -Т.: "Universitet", "Yangiyo'l poligraf servis" nashriyoti, 2005. -583 б.

2. Короновский Н.В. Общая геология: учебник. -М.: КДУ, 2006. -528 б.

3. Короновский Н.В. Историческая геология: учебник для студ. учреждений высш. проф. образования /Н.В.Короновский, В.Е.Хаин, Н.А.Ясаманов -5-е изд., перераб. -М.: Издательский центр "Академия", 2011. -464 б.

4. Соколовский А.К. Общая геология. Т.1. Учебник для геологических специальностей вузов. /Под редакцией профессора А.К.Соколовского. -М.: КДУ, 2006. -448 б.

5. Соколовский А.К. Общая геология. Т.2. Учебник для геологических специальностей вузов. /Под редакцией профессора А.К.Соколовского. -М.: КДУ, 2006. -208 б., ил., табл.

6. Tulyaganova N.Sh. Umumiy va tarixiy geologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar to'plami. 1-qism. -Т.: "Voriz" nashriyoti, 2013.

7. Tulyaganova N.SH., Ashirov M.B., Adilov B.F., Karabayev M.S., Ilyasova D.M. Umumiy va tarixiy geologiya. O'quv qo'llanma. -Т.: "Innovatsiya - Ziyo" nashriyoti, 2020. -280 б.

8. Toshmuhamedov B.T. Umumiy geologiya. Darslik. -Т.: "Noshir", 2011.-328 б.

9. Xofbayev B.M. Geologiya. O'quv qo'llanma. -Qarshi: "Intellekt" nashriyoti, 2021. -207 б.

10. Чинникулов Х., Жўлнєв А.Х. Умумий геология. Дарслик. -Т.: "МРИТИ" ДК, 2011. -396 б.

3.2. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Танюдий тахлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - хар бир рахбар фаолиятининг кундалик кайдаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // "Халқ сўзи" газетаси. 2017 й., 16 январь, №11.

2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. - Т.: Ўзбекистон, 2017.46 б.

3. Халисматов Э.Х. Зокиров Р.Т. Структуралар геологияси ва геотектоник изланишлар. -Т.: ТошДУ, 2004.

4. Лебедева Н.Б. Пособие для практических занятий по общей геологии. -М: изд. МГУ, 2000.

5. Холматов А.Х., Султонмуродов Ш. Умумий геологиядан амалий машг'улотлар. -Т.: "Ўзбекистон", 2002.

6. Комлева З.В. Общая и историческая геология. Методическое пособие. -Т.: ТашГТУ, 2014.

7. Комлева З.В. Геология и гидрогеология. Методическое пособие. -Т.: ТашГТУ, 2016.

8. Якушова А.Ф., Славин В.И., Хаин В.Е., и др. Общая геология. -М.: изд. МГУ, 2011.

3.3. Axborot manbaalari

1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

3. www.wikipedia.ru

4. www.catalogmineralov.ru

5. www.sandiegofotki.com

6. www.magikbaikal.ru

7. www.turism.imd.ru

8. www.artphotoclub.com

9. www.fototerra.ru

10. www.inpath.ru

11. www.fotoart.org.ua

12. www.geologiya.ru

13. www.Ziyo.net

14. <http://www/elebrary.ru/> - научная электронная библиотека

15. <http://mggu.ru> - Московский государственный геологоразведочный университет.